

## ARAB TILIDA OLD KO'MAKCHILARNING O'RNI VA XUSUSIYATLARI

**Axrоров Ibadulla Ziyatovich**

O'zDJTU "Arab tili tarjima nazariyasi va  
amaliyoti" kafedrasida o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab tilidagi grammatik omillarning ba'zi xususiyatlari va ularning qo'llanishga doir o'ziga xos turli ma'nolari o'z ichida, mashhur iboralar hamda boshqa misollar orqali yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** old ko'makchi, ta'avvuz, basmala, zoida, samo'iy, majoziy, o'timli, tashbeh, qasam.

**Annotation:** This article explores certain characteristics of grammatical factors in the Arabic language and their unique meanings related to their usage are explained through examples from Quranic verses, famous expressions, and other relevant instances.

**Keywords:** prepositions, ta'awwudh (seeking refuge), basmalah (invocation of "In the name of Allah"), redundant elements, literal meanings, figurative meanings, transitive verbs, simile, and oath expressions.

**Аннотация:** Эта статья исследует некоторые характеристики грамматических факторов арабского языка и объясняет их уникальные значения в контексте их использования через примеры из аятов Корана, известных выражений и других соответствующих примеров.

**Ключевые слова:** предлоги, та'аввух (прибежище), басмала (вызов "Во имя Аллаха"), избыточные элементы, буквальные значения, фигуральные значения, переходные глаголы, сравнение и выражения клятвы.

**التعليق:** تسلط هذه المقالة الضوء على بعض خصائص العوامل النحوية في اللغة العربية، موضحةً معانيها المميزة المرتبطة بسياقات استخدامها، وذلك من خلال أمثلة مستمدة من الآيات القرآنية، والتعبيرات الشهيرة، وغيرها من الشواهد ذات الصلة.

**الكلمات المفتاحية:** حروف الجر، التعوذ، البسملة، الزيادة، المعاني الحرفية، المعاني المجازية، الأفعال المتعدية، التشبيه، وألفاظ القسم.

Arab tilidagi jummalarni tarjima qilishda arab tilidagi old ko'makchilarning omil sifatida o'rni muhim hisoblanadi. Jumladagi ma'nolar tarjimasida farqlar paydo bo'lgan bo'lsa, ular old ko'makchilarga turli xil ma'no berishdan kelib chiqqan bo'ladi. Ulardan ba'zilarini quyida tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz:

Arab tilida harflar ikki turga bo'linadi: "حروف المعاني (huruf al- ma'oniy) - old ko'makchilar deb nomlangan harflarning barchasi kelishik jihatidan o'zgarib (mabniy) bo'lib, ular juda oz, ularning adadi saksondan oshmaydi. Ikkinchi tur alfavit harflari bo'lib, ular حروف المباني (huruf al- maboniy) asosiy harflar deyiladi"<sup>1</sup>. Old ko'makchilarning omil sifatida qo'llanishi va ularning jumlar tarjimasidagi o'rni va

<sup>1</sup> حفني ناصف. الدروس النحوية. الاسكندرية. دار العقيدة. 2007 م. 1428 هـ. ص-291

ahamiyati bilan tanishib o'tamiz. Ulardan eng mashhurlaridan biri ب (bi) harfi turli o'rinlarda har-xil ma'nolarda keladi:

“ ب ” – harfining birinchi ma'nosi “ilsoq” uchun, ya'ni “yopishish” va “yaqinlashish” ma'nolarida ishlatiladi. Ilsoqning ma'nosi bir narsani ikkinchi narsaga yopishib, yaqinlashib kelishidir. Ilsoq haqiqiy ma'noda kelishi mumkin. Masalan: بِه دَاءٌ “Unda kasallik bor” - desak, bu gapning ma'nosi “Unga kasallik yopishdi” - degani bo'ladi yoki majoziy (ko'chma ma'noda) keladi: مَرَرْتُ بِرَيْدٍ “Zaydning yonidan o'tdim” -degan gapdan, “O'tishim Zayd turgan joyga yaqin bo'ldi” -degan ma'noni tushunib olamiz.

لِلْإِسْتِعَانَةِ – “bi” harfining ikkinchi ma'nosi isti'ona ya'ni yordam uchun ishlatiladi. Qur'oni karimda bir necha o'rinlarda mazkur ma'nodagi oyatlar zikr qilingan. Jumladan, oyatda: <sup>2</sup> فَإِذَا قَرَأْتَ الْقُرْآنَ فَاسْتَعِذْ بِاللَّهِ مِنَ الشَّيْطَانِ الرَّجِيمِ

-degan, ya'ni “Qachonki, Qur'on o'qisangiz, albatta, quvg'in etilgan shayton(vasvasasidan)dan Alloh panoh berishini so'rangiz!<sup>3</sup>.

Mana shu oyatdagi “bi” iste'ona ya'ni “yordam so'rash” ma'nosida bo'lib, “Allohdan yordami bilan quvilgan shayton(sharri)dan panoh so'rayman” - degan ma'no kelib chiqadi. Yana bir oyatda: وَقَالَ مُوسَىٰ إِنِّي عُذْتُ بِرَبِّي وَرَبِّكُمْ مِنْ كُلِّ مُتَكَبِّرٍ لَا يُؤْمِنُ بِيَوْمِ الْحِسَابِ Muso: “Mening ham Robbim, sizlarning ham Robbingiz bo'lgan ZotdanHisob kuniga iymon keltirmaydigan har bir mutakabbirdan panoh so'rayman”<sup>4</sup>. Boshqa bir oyatda esa shunday deyiladi:<sup>5</sup> “وَإِنِّي عُذْتُ بِرَبِّي وَرَبِّكُمْ أَنْ تَرْجُمُونِ”. “Barchamizning tangrimizdan meni toshbo'ron qilishingizdan asrashni so'rayman”<sup>6</sup>. “Bismillahir rohmanir rohim”dagi “bi” iste'ona ya'ni “yordam so'rash” ma'nosida bo'lib, “Mehribon va rahmli Alloh nomi ila yordam so'rab boshlayman” - degan ma'noda bo'ladi. “bi”ning keyingi ma'nosi “ilsoq” ya'ni “suyanmoq, bog'lanmoq” ma'nolarini bildiradi. Shunda “basmala”ning ma'nosi “Mehribon va rahmli Allohga suyanib, Unga bog'lanib, Uning nomi ila boshlayman” - degan ma'noda bo'ladi.

كَتَبْتُ بِالْقَلَمِ Qalam bilan yozdim. Bu misolda ب “yordamida” ma'nosida kelgan. Shunda uning ma'nosi; “Qalam yordamida yozdim”-bo'ladi.

Keyingi “bi” harfining ma'nosi ta'lil uchun, ya'ni sababiyatni bildirish uchun keladi:” <sup>7</sup> إِنَّكُمْ ظَلَمْتُمْ أَنْفُسَكُمْ بِالَّتِي خَذَلْتُمْ الْعِجْلَ . Ma'nosi: “Ey qavmim, buzoqqa sig'inib, o'zlariga jabr qildinglar”<sup>8</sup>. “Bi” harfining yana bir vazifasi “ta'diya” lozim fe'lni

<sup>2</sup> Наҳл сураси, 98-оят.

<sup>3</sup> Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.:”Sano-standart” 2021. –278-б.

<sup>4</sup> Шайх Алоуддин Мансур. Қуръони азим мухтасар тафсири. – Т.: “Sharq”, 2019. – 469-б.

<sup>5</sup> Духон сураси, 20-оят.

<sup>6</sup> Азизхўжа Иноятов, Ғани Зикруллаев. Қуръони карим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси. – Т.: “Hilol-Nashr” нашриёти босмаҳонаси, 2022. – 497-б.

<sup>7</sup> Бақара сураси, 54-оят.

<sup>8</sup> Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. Қуръони карим маъноларининг ўзбекча таржимаси ва тафсири. – Т.: “SHARQ” НМАК, 2019. – 63-б.

o'timliga aylantirish uchun keladi. Alloh taolo Baqara surasining 17- oyatida: ”ذَهَبَ”<sup>9</sup> ”اللَّهُ يُنُورُهُمْ”<sup>9</sup> Ma'nosi: “Alloh (bexosdan olov) nurini ketkazib ...”<sup>10</sup>, - degan. Shu o'rinda ذَهَبَ (ketdi) ma'nosidagi fe'l أَذْهَبَ (ketgazdi) ma'nosida kelishiga “bi” harfi sabab bo'lgan. Yana “bi” harfi zoida bo'lib ham keladi. Bunda holatda “bi” zoida bo'lgani uchun ham unga ma'no berilmaydi. Misol uchun; Baqara surasining 195-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: ” وَ لَا تُلقُوا بِأَيْدِيكُمْ إِلَى التَّهْلُكَةِ ”<sup>11</sup>. Ma'nosi: “O'zingizni halokatga duchor qilmang”<sup>12</sup>. “أَفْرَأَ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ”<sup>13</sup>. “(Ey, Muhammad!), sizni yaratgan Parvardigoringiz nomi bilan o'qing!”<sup>14</sup>.

Bu oyati karimada “bi” zoida bo'lib kelgan.

إِلَى (ilaa) – jar harflari (o'zidan keyin kelayotgan ismni إِلَى kasralik qiluvchilar)dan omillardan biri bo'lib, ko'pincha -ga, -gacha, ma'nolarida ishlatiladi. “Old ko'makchilar (huruful jar) o'zi bog'lanib kelgan aniq yoki noaniq holatdagi so'zdan oldin kelib, uni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi” .

Qur'onda “ilaa” old ko'makchisi bir necha ma'nolarda kelganligini ko'rishimiz mumkin: Alaq surasining 8-oyatida intiho, nihoyalash ma'nosida kelgan<sup>15</sup>:

إِنَّ إِلَى رَبِّكَ الرُّجْعَى

“(Ey, inson!) Albatta, qaytish Rabbing huzurigadir”<sup>16</sup>. Shu o'rinda “ilaa” old ko'makchisi intiho, nihoyalash ma'nosida kelgan.

1. إِلَى harfining omil sifatida yana bir vazifasi makonda chegarani nihoyasiga yetganligini bildirib keladi: سِرْتُ مِنَ النَّصْرَةِ إِلَى الْكُوفَةِ

“Basra (shahri)dan Kufa (shahri)gacha bordim”. Bu misolda borish chegarasining oxiri Kufa shahri ekanligini “ilaa” old ko'makchisi bildirib turibdi.

2. Bu omilning keyingi vazifasi “birgalik” ma'nosida keladi:

“وَأَنْتَوِا الْيَتَامَىٰ أَمْوَالَهُمْ وَلَا تَتَّبِعُوا الْخَبِيثَاتِ بِالطَّيِّبِ وَلَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَهُمْ إِلَىٰ أَمْوَالِكُمْ إِنَّهُ كَانَ حُوبًا كَبِيرًا”<sup>17</sup>

Ma'nosi: “(Voyaga yetgan) yetimlarga mol-mulklarini (qaytarib) beringiz, pok narsani nopok narsaga almashtirmangiz! Ularning mollarinini o'z mollaringizga qo'shib ham yemangiz! Zero, bu katta gunohdir”<sup>18</sup>. Bu oyatdagi old ko'makchi “birgalikda” ma'nosini anglatib, oyatda “qo'shib ham” deyilgan.

3. Goho إِلَى omilidan keyingi ism, o'zidan oldingi ismni ostiga kiradi, agar keyingi ism oldingi ismni jinsidan bo'lsa: يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا إِذَا قُمْتُمْ إِلَى الصَّلَاةِ فَاغْسِلُوا وُجُوهَكُمْ وَأَيْدِيَكُمْ إِلَىٰ

<sup>9</sup> Бақара сураси, 17-оят.

<sup>10</sup> Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.:”Sano-standart” 2021. –4-б.

<sup>11</sup> Бақара сураси, 195-оят.

<sup>12</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Т.: “Nilol-Nashr” нашриёти, 2019. – 30-б.

<sup>13</sup> Алақ сураси, 1-оят.

<sup>14</sup> Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий.Қуръони карим маъноларининг ўзбекча таржимаси ва тафсири. – Т.: “SHARQ” НМАК, 2019. – 647-б.

<sup>15</sup> محمد احمد مرجان. مفتاح الاعراب. القاهرة. مكتبة الاداب. 1421هـ. 2000 م. ص. 17

<sup>16</sup> Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.:Sano-standart, 2021. – 597-б.

<sup>17</sup> Нисо сураси, 2-оят.

<sup>18</sup> Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.:”Sano-standart” 2021. –77-б.

19. الْمَرَافِقِ وَامْسَحُوا بِرُءُوسِكُمْ وَأَرْجُلُكُمْ إِلَى الْكَعْبَيْنِ. Ma'nosi: "Ey, iymon keltirganlar! Namozga turmoqchi bo'lsalaringiz, yuzlaringizni va qo'llaringizni chig'anoqlari ila yuvinglar. Boshlaringizga mas'h tortinglar. Va oyoqlaringizni to'piqlari ila yuvinglar"<sup>20</sup>.

4. Gohida إلى dan keyingi ism, o'zidan oldingi ismni ostiga kirmaydi, agar keyingi ism oldingi ismni jinsidan bo'lmasa: 21. أَيْمُوا الصِّيَامَ إِلَى اللَّيْلِ Ma'nosi: "So'ngra ro'zani kechasigacha batamom qiling". Oyatdagi "kechasi" so'zi "ro'za"ning jinsidan emas. Ikkalasi umuman, boshqa-boshqa narsa. Shu ma'noga ko'ra kechasi ro'za tutilmaydi.

Old ko'makchilaridan yana biri فِي (fiy) bo'lib, bu harf ham omil sifatida bir necha ma'nolarda keladi; Zarfiyat uchun kelib yo zamoni yoki makonni bildirib keladi: الْمَاءِ فِي (fiy) haqiqatda makonni ifodalab kelgan. Majoziy bo'lganiga misol: النَّجَاةُ فِي الصِّدْقِ - Muvaffaqiyat rostgo'ylikda. Qur'ondan zarfiyatning majoziy bo'lganiga misol: 22. أَنْصَابَ الْجَنَّةِ الْيَوْمَ فِي شَعْلِ فَكَاهُونَ. "Albatta, jannat ahli u kunda (rohat va farog'at) ish(lari) bilan shoddir-lar"<sup>23</sup>.

فِي omili عَلَى (ustida) ma'nosida ishlatiladi. Bu ma'noda kelishi kam uchraydi<sup>24</sup>. Qur'oni karimda Fir'avn tilidan: 25. "وَأَصْلَبْتَكُمْ فِي جُذُوعِ النَّخْلِ" -dedi. Ma'nosi: "Va sizlarni xurmo shoxlariga osaman"<sup>26</sup>. Oyatdagi فِي harfi عَلَى (ustida) ma'nosida kelgan.

Omillardan yana biri harfi jarlardan bo'lgan ل (lam) harfi bo'lib, u ham bir necha ma'nolarda ishlatiladi: Mulk uchun, masalan; الْمَالُ لَزَيْدٍ Mol Zaydniki, ya'ni Zaydni mulki hisoblanadi. Xoslash uchun, masalan; الْجُلُودُ لِلْفَرَسِ Yoping'ich otniki, ya'ni otga xos bo'lgan yoping'ich, eshakka xos emas, degan ma'noda. Sababni bildirish uchun, ضَرَبْتُ زَيْدًا لِلتَّائِيْبِ Zaydni odob berish uchun urdim. Ushbu misoldagi ل (lam) ish-harakat sababini bildirib kelayotgan ismga qo'shib kelgan. Gohida ل (lam) عَنْ ('an) "haqida" ma'nosida ishlatiladi:

27. "قَالَ الَّذِينَ كَفَرُوا لِلَّذِينَ آمَنُوا" Ma'nosi: "Kufr keltirganlar iymon keltirganlarga"<sup>28</sup>. Oyatdagi ل (lam) عَنْ ('an) "haqida" ma'nosida kelgan.

Ba'zida ل (lam) zoida bo'lib keladi; 29. "رَدِفَ لَكُمْ" Oyat رَدِفَكُمْ ma'nosida kelgan; "Izingizdan tushib qolgan bo'lsa..."<sup>30</sup>. Goho بَعْدَ (ba'da) "keyin" manosida

<sup>19</sup> Моида сураси, 6-оят.

<sup>20</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. – Т.: "ШАРҚ" НМАК, 2008. – 21-б.

<sup>21</sup> Бақара сураси, 187-оят.

<sup>22</sup> Ясин сураси, 55-оят.

<sup>23</sup> Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Sano-standart, 2021. – 444-б.

<sup>24</sup> عبدالقاهر ابن عبد الرحمن ابن محمد الجرجاني. العوامل المنة. دار المنهاج. لبنان. بيروت - 1430. 2009. م. ص 45.

<sup>25</sup> Тоҳа сураси, 71-оят.

<sup>26</sup> Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. Қуръони карим маъноларининг ўзбекча таржимаси ва тафсири. – Т.: "SHARQ" НМАК, 2019. – 279-б.

<sup>27</sup> Ясин сураси, 47-оят.

<sup>28</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Т.: "HILOL-NASHR" нашриёти, 2019. – 443-б.

<sup>29</sup> Намл сураси, 72-оят.

<sup>30</sup> Азизхўжа Иноятов, Ғани Зикруллаев. Қуръони карим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси. – Т.: "Hilol-Nashr" нашриёти босмаҳонаси, 2022. – 383-б.

ishlatiladi; <sup>31</sup> أَقِمِ الصَّلَاةَ لِذُلُوكِ الشَّمْسِ إِلَى غَسَقِ اللَّيْلِ وَفُزَانَ الْفَجْرِ إِنَّ فُزَانَ الْفَجْرِ كَانَ مَشْهُودًا

og'ishidan to tun qorong'usigacha namozni to'kis ado qil. "Fajr Qur'oni"ni ham. Albatta, "fajr Qur'oni" shohid bo'linadigandir"<sup>32</sup>.

Ba'zan <sup>33</sup> لَا يُجِئُهَا لَوْ قَتَبَهَا "Uning vaqti (kelgani)da uni O'zi bildiradi"<sup>34</sup>. Zero, Oyatdagi ل (lam) <sup>33</sup> الْعَيْرُ ma'nosida kelgan.

Omillardan biri رُبُّ (rubba). "Aksariyat ulamolar nazdida ushbu omil "kamdan-kam" ma'nosida ishlatiladi. U gapning boshida keladi. Nakirai mavsufa ismga xos omil hisoblanadi. رَبُّ كَامِدَانَ كَامِدَانَ رَبُّ رَجُلٍ كَرِيمٍ أَلَيْتُهُ. Ibn Molik رَبُّ omilini "ko'pdan-ko'p" ma'nosida kelishini sahih sanagan. Sibavayhdan naql qilinganiga ko'ra "kamdan-kam" ma'nosi nodir holat bo'lib, u lug'at jihatidan, "ko'pdan-ko'p" ma'nosi urf jihatidan amal qiladi"<sup>35</sup>.

Keyingi omil عَلَى (a'la) oliylik, yuqorilik ma'nosida ishlatiladi: زَيْدٌ عَلَى السَّطْحِ "Zayd tekislik ustida, uning zimmasida qarzi bor". Ushbu misoldagi عَلَى السَّطْحِ haqiqiy ma'noda, عَلَيْهِ دِينٌ majoziy ma'noda qo'llangan. عَنْ (a'n) omili uzoqlashtirish, yetib kelish, haddan oshish, oshirib yuborish ma'nolarida keladi. رَمَيْتُ السَّهْمِ عَنِ الْقَوْسِ Kamondan o'q otdim. Bu misol "Kamondan o'qni uzoqlashtirdim" ma'nosida. Samo'iy omillardan yana biri ك (kaf) bo'lib, uning ikkita ma'nosi bor: Birinchi ma'nosi tashbeh uchun keladi: زَيْدٌ كَالْأَسَدِ – Zayd sher kabi. Bu yerdagi ma'no majoziy tashbeh bo'lib, Zaydning shijoati sherning shijoatiga o'xshaydi, manosida. Misoldagi tashbeh haqiqiy emas. ك (kaf)ning ikkinchi ma'nosi zoida bo'lib kelishi: <sup>36</sup> لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ "U Zotga o'xshash hech narsa yo'qdir"<sup>37</sup>. مُذٌ (muz) va مُنْذٌ (munzu) omillari o'tgan zamonda maqsad chegarasi boshlanishini ifodalaydi: مَا رَأَيْتُهُ مُذٌ وَ مُنْذُ يَوْمِ الْجُمُعَةِ "Uni juma kunidan buyon ko'rganim yo'q" ma'nosida. مُذٌ (muz) va مُنْذٌ (munzu) omillari bir xil ma'noda kelgan. حَتَّى (hatto) omilini ham "ikki xil ma'nosi bor: Birinchi ma'nosi maqsad chegarasini nihoyasi uchun keladi. أَكَلْتُ السَّمَكَةَ حَتَّى رَأْسِهَا Baliqni boshigacha yedim. Ikkinchi ma'nosi مَعَ (ma'ah) "bilan birga" ma'nosida keladi va u ko'p keladi: حَتَّى جَاءَنِي حَتَّى المُنْشَأَةِ Hojilar oldinga kelishdi piyodalari bilan birga"<sup>38</sup>. Ushbu misoldagi حَتَّى omili مَعَ (ma'ah) "bilan birga" ma'nosida ishlatilgan. Omillardan وَآءُ الْقَسَمِ (vavul qasam) qasam uchun kelgan "vov", تَاءُ الْقَسَمِ (taul qasam) qasam uchun kelgan "ta" va بَاءُ الْقَسَمِ (bavul qasam) qasam uchun kelgan "ba" bularning barchasi o'zidan keyingi ismni jar o'qilishiga sabab bo'ladi. وَاللَّهِ لَأَفْعَلَنَّ كَذَا Allohga qasamki, shunday qilaman. Omillardan مَا جَاءَنِي الْقَوْمُ حَاشَا زَيْدٍ Zayddan حَاشَا (haasha), خَلَا (xolaa), عَدَا (a'daa) istisno uchun keladi.

<sup>31</sup> Исро сураси 78-оят.

<sup>32</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Куръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Т.: "HILOL-NASHR" нашриёти, 2019. – 290-б.

<sup>33</sup> Аъроф сураси, 187-оят.

<sup>34</sup> Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Sano-standart, 2021. – 174-б.

<sup>35</sup> عبدالقاهر ابن عبد الرحمان ابن محمد الجرجاني. العوامل المنية. دار المنهاج. لبنان. بيروت -1430 هـ. 2009 م. ص 46.

<sup>36</sup> Шуру сураси, 11-оят.

<sup>37</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Куръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Т.: "HILOL-NASHR" нашриёти, 2019. – 484-б.

<sup>38</sup> عبدالقاهر ابن عبد الرحمان ابن محمد الجرجاني. العوامل المنية. دار المنهاج. لبنان. بيروت -1430 هـ. 2009 م. ص 46.

boshqa qavmning barchasi oldimga keldi. Ushbu misolda حاشًا istisno bo'lib, "boshqa" ma'nosida kelgan.

Xulosa qilib aytganda arab tili grammatikasini bilishda old ko'makchilarning o'rni omil sifatida o'ta muhim hisoblanadi. Zero, bitta omil bir necha, hatto o'n xil ma'noda keladigan omillar ham mavjud. Ushbu omillarni bilish arab tilini o'rganayotganlar uchun ahamiyatli sanaladi.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.:”Sano-standart” 2021.

2. Шайх Алоуддин Мансур. Қуръони азим мухтасар тафсири. – Т.: “Sharq”, 2019.

3. Азизхўжа Иноятов, Ғани Зикруллаев. Қуръони карим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси. – Т.: “Hilol-Nashr” нашриёти босмахонаси, 2022.

4. Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий.Қуръони карим маъноларининг ўзбекча таржимаси ва тафсири. – Т.: “SHARQ” НМАК, 2019.

5. حفني ناصف. الدروس النحوية. الاسكندرية. دار العقيدة. 2007 م. 1428 هـ

6. محمد احمد مرجان. مفتاح الاعراب. القاهرة. مكتبة الاداب. 2000 م. 1421 هـ